ISSN 2091-5446

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2020-yil, 3-son (121) **TABIIY FANLAR SERIYASI**

Kimyo, Biologiya, Geografiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.n., dotsent**
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M. X. ASHUROV	- O‘zFA akademigi
T. M. MO‘MINOV	- O‘zFA akademigi
Sh. A. ALIMOV	- O‘zFA akademigi
S. N. LAKAYEV	- O‘zFA akademigi
T. RASHIDOV	- O‘zFA akademigi
N. N. NIZAMOV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)
A. S. SOLEEV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)
I. A. IKROMOV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)
B. X. XO‘JAYAROV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)
N. B. FERAPONTOV	- k.f.d., professor (Moskva davlat universiteti, Rossiya)
Sh. M. TUGIZOV	- professor, (Kaliforniya universiteti, AQSh)
A. G. YaGOLA	- f.-m.f.d., professor (Moskva davlat universiteti, Rossiya)
I. I. JUMANOV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)
E. A. ABDURAXMONOV	- k.f.d., professor (SamDU)
N. K. MUXAMADIYEV	- k.f.d., professor (SamDU)
ANDREA PITACCO	- Padova universiteti professori, Italiya
VEENA AGRAWAL	- Dehli universiteti professori, Hindiston
MASLINA DARUS	- Malayziya milliy universiteti professori, Malayziya
ALBERTO DEL BIMBO	- Florensiya universiteti professori, Italiya
K. G. TOKHADZE	- Sankt Peterburg davlat universiteti professori, Rossiya
L. A. BULAVIN	- Kiev milliy universiteti professori, Ukraina
MIHAY BULAI	- Aleksandr Ioan Kuza universiteti professori, Ruminiya
J. X. XO‘JAYEV	- b.f.d., professor (SamDU)
Z. I. IZZATULLAYEV	- b.f.d., professor (SamDU)
A. A. ABULQOSIMOV	- g.f.d., professor (SamDU)
X. SHODIEV	- Vilfred Laurier universiteti professori (Kanada)
L. SOBIROV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)
X. X. XUDOYNAZAROV	- t.f.d., professor (SamDU)
GUN-SIK PARK	- Seul universiteti professori (Koreya)

Obuna indeksi – yakka tartibidagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

KIMYO / ХИМИЯ / CHEMISTRY

Магрупов Ф.А., Кадиров Х.Э., Эргашев А.Х.
Перспективные источники получения ароматических углеводородов в республике Узбекистан 4

Махмудов Н.А., Мухамадиев Г.М., Зоиров М.А., Эралиев А.П., Туганов Г.Ш., Насимов Х.М., Маликов У.А.
Влияние двойной имплантации ионов на физико-химические и механические свойства поверхностных слоев сплавов ВТ-6 и ВТ-22 11

Ruziyev J.E., Smanova Z.A., Ruziyev E.A., Nurboyev X.I.
Zamonaviy elektrokimyoviy analiz usullarining yer usti suvlari va tuproqning mineral tarkibini baholashda qo'llanilishi 18

Усманова Х.У., Бобожонов Х.Ш., Рахимов С.Б., Зельцер Л.Е., Сманова З.А.
Иммобилизованные органические люминесцентные реагенты и возможности применения их для определения некоторых элементов 23

Махмудов Н.А., Мухамадиев Г.М., Туганов Г.Ш., Рахмонов И.Я., Насимов Х.М., Маликов У.А., Маматов А.С.
Структура и свойства оксидных покрытий полученных электронно-плазменным оксидированием на подложке из Al-Cu и Al-Mg сплавов 31

Яркулов А.Ю., Умаров Б.С., Акбаров Х.И.
Адсорбционные и термодинамические свойства гибридные хитозан-кремнеземные нанокомпозитов 36

Дусанов Р.Х., Тожиев П.Ж., Тураев Х.Х.
Влияние базальта различных месторождений на свойства полиамида 40

Рахимов С.Б., Эрматова О.А., Жумаева Э.Ш., Сманова З.А., Рузметов У.У.
Имобилизованный фенилфлуорон как чувствительный слой оптического сенсора на ионы ванадия 44

Яркулов А.Ю.
Термодинамические свойства гибридных диацетат целлюлозы-кремнеземных нанокомпозиций 50

Захидов К.А., Меликулов О.Ж., Гайбуллаев Ш.Ш., Орипов Э.О.
Влияние различных факторов на направление реакции алкилирования 2-ацетиламино-6-метил (фенил) пиримидин-4-онов 54

Эркабаев Ф.И., Сабиров Б.Т., Усманов Х.Л., Урозов Т.
Очистка сажи ультразуковым диспергатором 60

Касимов Ш.И., Абдурахманова У., Реймов А., Матчанов А.Д.
Определение и изучение состава сточной воды и некоторых химических веществ полученные в результате переработки корня солодки из территории каракалпакии 62

Shakhidova D., Orzikulov B., Makhkamov B., Gafurova D., Mukhamediev M.
Ion-exchange materials based on polyacrylonitrile 67

Nasimov A.M., Abduraxmanov I.E.
Ammiakni aniqlovchi, yarimo'tkazgichli gaz analizatorini ishlab chiqish 70

Торамбетов Б.С., Кадирова Ш.А., Абсоатов Ю.К., Ашуров Ж.М., Парпиев Н.А.
Синтез, структура и физико-химическое исследование комплекса тетра-μ-ацетато-бис[(5-амино-2-метилсульфонил-1,3,4-тиадиазол-*K*N^1)меди(ii)] 75

Saparov S.Y., Maxkamov M.A., Sidiqov A.S.
Mexanokimyoviy usulda olingan karboksimetilkraxmalning natriyli tuzi suvli eritmalarining qovushqoqligini tadqiq qilish 80

Boymatov I.M., Eshmetov I.D., Mamataliyev N.N., Uzoqov J.R.
Navbahor ishqoriy bentoniti va chinor daraxti ko‘miri asosida olingan adsorbentlarda benzol bug‘i adsorbsiyasi 83

Сманова З.А., Мадатов У.А., Турамбетова А.К., Зияев Д.А.
Сорбционно-спектрофотометрическое определение ионов марганца 87

Худойбердиева А.А., Урунбаева З.Э., Холмирзаев М., Алимова М.
Синтез амида салициловой и пирослизевой кислоты на основе гомовератриламина 92

Eshkaraev S.Ch.,To’rayev X.X., Umbarov I.A., Babamuratov B.E., Eshqorayev S.S.
Surxondaryo viloyati tuproqlaridagi seziy-137 radionuklidi beta-nurlanish aktivligini radiometrik-spektrometrik usulda aniqlash 95

BIOLOGIYA / БИОЛОГИЯ / BIOLOGY

Kuziev M.S.
To‘yimli moddalar miqdoriga mos holda dag‘al ozuqalarning echkilar tomonidan iste’mol qilinishi va ularning hazmlanishi 98

Hasanov Sh.Sh., Sasmakov S.A., Ashirov O.N., Abdurahmonov J.M., Eshboev F.B., Azimova Sh.S.
MIS - (Myuller ingibirlovchi substansiyasi) inson saratonini davolashdagi roli va rekombinant rBmNPV- MIS bakulovirus klonlarini identifikatsiyalash usullari 101

Izzatullaev Z.I., Qudratov J.A.
Nurota tog’lari qorinoyoqli quruqlik mollyuskalari (mollusca, gastropoda, pulmonata) ning taksonomik tarkibi, bioekologik xususiyatlari, mintaqalararo tarqalishi va populyatsiyadagi zichligi 105

GEOGRAFIYA / ГЕОГРАФИЯ /GEOGRAPHY

Namozov J.A., Meliyev B.A., Kosimov D.N.
Samarqand viloyatida tomchilatib sug‘orish ishlari dinamikasi va uning hududiy tahlili 111

Mirzaxmedov I.K.
Qo‘qon vohasi landshaftlaridan foydalanishni ekologik optimallashtirish masalalari 115

Komilova N. Q., Oblaqulov H. A.
Navoiy viloyatining demografik vaziyati 118

Tirkashev N.I ., Rahmatullaev A.
Omonqo`tonsoy hamda uning irmoqlarining gidrologik rejimi va energetik potensiali 123

Mualliflarga

UDK 338.386/387(584.4)

SAMARQAND VILOYATIDA TOMCHILATIB SUG‘ORISH ISHLARI DINAMIKASI VA UNING HUDUDIY TAHLILI

[1]Namozov J.A., [2]Meliyev B.A., [2]Kosimov D.N.
[1]Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti
[2]Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. maqolada zamonaviy sug‘orish texnologiyalari, jumladan tomchilatib sug‘orish haqida ma’lumot berilgan. Samarqand viloyati hududida amalga oshirilgan tomchilatib sug‘orish ishlarining 2008-2018 yillardagi dinamikasi, tumanlar doirasida ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy sug‘orish texnologiyalari, tomchilatib sug‘orish, Samarqand viloyati, tumanlar, Jomboy, Paxtachi.

Динамика и территориальный анализ капельного орошения в Самаркандской области

Аннотация. В статье описаны современные ирригационные технологии, в том числе капельное орошение. Научный анализ динамики масштабных ирригационных работ, проведенных в Самаркандской области за 2008-2018 гг.

Ключевые слова: современное орошаемые технологии, капельное орошение, Самаркандская область, туманы, Джамбай, Пахтачи.

Dynamics and territorial analysis of drip irrigation in Samarkand region

Abstract. The article describes modern irrigation technologies, including irrigation. The scientific analysis of the dynamics of large-scale irrigation works carried out in the Samarkand region for 2008-2018.

Keywords: modern irrigation technologies, drip irrigation, Samarkand region, districts, Jambay, Pakhtachi.

Kirish

Arid iqlimli hududlarda suv yetishmovchiligi va undan foydalanishdagi muammolar har doim dolzarb bo‘lib kelgan. Mazkur masalalarni hal qilishda zamonaviy sug‘orish texnologiyalari muhim rol o‘ynaydi. Biroq ularning barchasidan ham mamlakatimiz iqtisodiyotida muntazam foydalanib bo‘lmaydi. Umuman zamonaviy texnologiyalarga yomg‘irlatib, tomchilatib, tuproq ostidan, aerozol usulda sug‘orish va boshqalar kiradi. Shulardan hozirda bizning sharoitda tomchilatib sug‘orishdan qishloq xo‘jaligida suv foydalanish keng yo‘lga qo‘yilmoqda.

Tomchilatib sug‘orish shunday usulki, bunda suv tuproq ustiga beriladi, shu bilan birga tuproq yuzasining katta qismi quruqligicha qoladi. Mazkur sug‘orishda bir - biridan ma’lum masofada o‘rnatilgan va mayda teshikchalarga ega bo‘lgan kichik diametrli quvurlar tarmog‘i orqali suv o‘simlikdan bevosita yaqin masofada tuproq yuzasiga tomchilar shaklida beriladi va shu tufayli suv sarfini tejash ta’minlanadi.

Tomchilatib sug‘oruvchi quvurlar teshiklari ostidagi tuproq ichidan unib chiqqan ildiz atrofda ma’lum sharsimon shaklda namlangan joy hosil bo‘ladi, ya’ni butun sug‘orilayotgan maydonda emas, balki faqat mevali daraxt, uzum yoki boshqa o‘simlik tanasiga tutash doiradagina yer namlanadi. Tomchilatib sug‘orish asosan bog‘zor va uzumzorlarni suv bilan ta’minlash hamda issiqxonalarda mahsulot yetishtirish uchun qo‘llaniladi. Keyingi vaqtlarda bu usul viloyatda sabzavot va boshqa ekinlarni yetishtirish uchun ham ishlatilmoqda.

Ishning maqsadi va vazifalari

Samarqand viloyati qishloq xo‘jaligida ham so‘nggi yillarda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish ishlari boshlab yuborildi. Mintaqada zamonaviy sug‘orish texnologiyalarining ba’zilaridan hozirda foydalanilsa, ayrimlaridan kelajakda foydalanish maqsad qilingan. Hozirgi vaqtda tomchilatib sug‘orish bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

1-jadval


Samarqand viloyati tumanlarida 2008-2018 yillarda tomchilatib sug‘orish usullarini joriy etish bo‘yicha ma’lumot (ga his.)

№	Tumanlar nomi	2008-2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2018 yilgacha
1	Bulung‘ur	148		292	407	70	142	130	1189
2	Jomboy	65	520	397	207	220	610	900	2919

3	Ishtixon	31					37	134	202.3
4	Kattaqo‘rg‘on	60				16	297	80	453
5	Narpay	292				15	20		327
6	Nurobod	398	40			65	80		583
7	Oqdaryo	50	8	27	60	50	10	86	291
8	Pastdarg‘om	192			343	190	200	207	1132
9	Paxtachi	4					30		34
10	Payariq	255	5			100	200	110	670
11	Samarqand	862	40	100	266	65	87	93	**1513**
12	Tayloq	25		40	56	40	30	34	**225**
13	Urgut	10.5			20	90	50	69	**239.5**
14	Qo‘shrabot	10					148	60	**218**
Jami		2403	613	856	1359	921	1941	1903	9995.8

Manba: Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma’lumotlari.

Viloyat dehqonchiligida tomchilatib sug‘orish ayniqsa, oxirgi 10 yillikda keng rivojlantirildi. Mintaqaning barcha hududlarida, turli yillarda ushbu jarayon bosqichma - bosqich amalga oshirib borilmoqda. 2008 yildan 2013 yilgacha umumiy ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, tomchilatib sug‘orish ishlari barcha tumanlarda imkoniyat doirasida bajarilgan (1-jadval). Jumladan, 2013 va 2014-yillarda esa beshtadan, 2015 va 2016 yillar 12 tadan, 2017 yil barcha tumanlarda, biroq 2018 yilda 11 tumanda tomchilatib sug‘orish ishlari amalga oshirildi [2]. So‘nggi yilda aynan Narpay, Nurobod va Paxtachi tumanlarida mazkur vazifalar bajarilmay qoldi. Bunga asosiy sabab sifatida yerlarning sho‘rlanishini ko‘rsatish mumkin. Chunki sho‘rlangan yerlarda o‘simlik tomchilatib sug‘orilsa ildizi atrofida (tuz tufayli) kuchli bosim yuzaga keladi, ozuqani kerakli miqdorda olmagandan keyin, rivojlanishdan to‘xtab qoladi. Shu bois mazkur ishlar asosan tuproq sharoiti qoniqarli bo‘lgan hududlarda qo‘llanilmoqda.



1-rasm. Viloyatda tomchilatib sug‘orilgan maydonlar dinamikasi (ga hisobida)
Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (ZITHB) 2008-2018 yil ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Tomchilatib sug‘orish maydonlari yildan-yilga bosqichma-bosqich ko‘paytirib borildi. Mana shu o‘n yillikda rejalashtirilgan ishlar deyarli har xil amalga oshirib kelindi. YA’ni, dastlabki to‘rt yilda (2008-2012 yillar) 100 % bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik ortig‘i bilan bajarildi (1-rasm). Ayniqsa, 2015 yilda reja 1,5 baravarga amalga oshirildi.

2008-2018 yillar davomida viloyat bo‘yicha jami 9995,8 gektar yerda tajriba o‘tkazildi. Ushbu jarayon asosan shahar atrofi tumanlarida ko‘proq kuzatilib, faqatgina 4 tumanda (Jomboy, Samarqand, Bulung‘ur, Pastdarg‘om) viloyat jami ulushining yarmidan ko‘prog‘i (57,5 %) to‘g‘ri kelmoqda (2-rasm). Zamonaviy sug‘orish ishlarining mazkur usuli viloyat tumanlari bo‘yicha har xil maydonlarda amalga oshirilgan.

Viloyatda tomchilatib sug‘orish usulini joriy etish suvdan samarali foydalanishga imkon beradi, uning sarfini kamaytiradi. Obi-hayotdan foydalanish koeffitsiyenti 95 foizga yetadi, bu esa quyidagilarni ta’minlaydi:

- sug‘orish miqdori o‘simliklarning suvga bo‘lgan ehtiyojiga mos bo‘ladi;
- suv bevosita ildizning tuproqda joylashgan qismiga beriladi;
- tuproq yuzasidan bug‘lanish kamayadi;
- yer yuzasida ortiqcha suv oqimi mavjud bo‘lmaydi;
- umumiy energiya va mehnat sarfi kamayadi, sug‘orishda odamning doimiy ishtiroki talab etilmaydi;
- jarayonni avtomatlashtirish imkoni bor;
- sug‘orishni o‘g‘it solish bilan uyg‘unlashtirish, ularning sarflanishini kamaytirish va o‘simliklarning oziqlanish rejimini ma’qullashtirish mumkin;
- suv bevosita ekinlar ildizlariga yetkazilganligi tufayli begona o‘tlar o‘smaydi;
- agrotexnik tadbirlar (kultivatsiya, chopiq) iqtisod qilinadi;
- ikkilamchi sho‘rlanish ehtimolini kamaytiradi.


Ijobiy jihatlar bilan bir qatorda, tomchilatib sug‘orish ayrim kamchiliklarga ham ega:

1. Dastlabki kattagina moliyaviy xarajatlarga ehtiyoj bor, ayniqsa avtomatik sug‘orish tizimidan foydalanganda;

2. Har bir o‘simlikka yetkazib berilayotgan suv miqdorini aniq sozlash lozim. Bu ayniqsa suv uzatish tarmog‘i juda uzun bo‘lganda muhimdir. Bunday holatda maxsus moslamalar yordamida uzatilayotgan suv miqdorini sozlash talab qilinadi;

3. Sug‘orishni avtomatik nazorat qilish tizimi murakkab. Har qanday elementning ishdan chiqishi yoki noto‘g‘ri ishlashi ekinlarning nobud bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini keng joriy qilish uchun eng avvalo mazkur kamchiliklarni chuqur o‘rganish va ularni oldini olish yoki bartaraf etish choralarini izlab topish lozim.



2-rasm. Viloyat tumanlarining tomchilatib sug‘oriladigan yerlardagi ulushi (% hisobida)
Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (ZITHB) 2008-2018 yil ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Sug‘orish texnologiyalarining eng katta foydali ish koeffitsiyenti (FIK) tuproq ichidagi sug‘orishda erishiladi-0,98; tomchilatib sug‘orishda-0,95 va yomg‘irlatib sug‘orish usulida-0,80-0,90 [1]. Biroq yomg‘irlatib, tomchilatib va tuproq ichidan sug‘orishni tashkillashtirish va undan foydalanishga kattagina mablag‘ sarflanadi. Bundan tashqari, ushbu tizimlardan foydalanish va ularga texnik xizmat ko‘rsatish uchun yuqori malakali mutaxassislar talab etiladi. Yuqorida aytib o‘tilgan sug‘orish usullari hozircha ma’lum tabiiy (iqlimiy, tuproq va gidrogeologik) sharoitlarda qo‘llanilmoqda. Bu usullarni avtomorfli tuproqlarda, ya’ni sizot suvlarining sathi juda chuqurda joylashgan va mexanik tarkibi bo‘yicha yengil tuproqlarda ishlatish mumkin. Yer osti suvlarining minerallashish darajasi bir litrga 3 grammdan yuqori bo‘lmasligi kerak. Sug‘orishda muallaq zarrachalar suvda mavjud bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi, chunki bu

tizim tomchilatgichlarni va forsunkalarini to‘lib qolishiga olib kelishi mumkin. Yuqorida aytib o‘tilgan shartlardan boshqa yomg‘irlatib sug‘orish usulidan foydalanish uchun sug‘oriladigan hududda shamol tezligi sekundiga 3-5 metrdan oshiq bo‘lmasligi lozim.

Bugungi kunda mavjud sug‘orish texnologiyalaridan tomchilatib sug‘orish eng suv tejaydigan usul hisoblanadi. Bu usul yomg‘irlatib va tuproq ichidan sug‘orishga nisbatan kamroq moliyaviy xarajatlar va mehnat sarfini talab qiladi. Tomchilatib sug‘orishni quyidagi sharoitlarda samarali qo‘llash mumkin:

- sezilarli nishabi mavjud va past-baland bo‘lgan yerlarda. Viloyatning tog‘ va tog‘ oldi hududlarida, jumladan Urgut, Bulung‘ur, Ishtixon, Kattaqo‘rg‘on, Qo‘shrabot tumanlarida;
- suv singib ketishi yuqori darajada bo‘lgan tuproqlarda. Asosan cho‘l va chalacho‘l zonalarida, jumladan Nurobod, Qo‘shrabot, Pastdarg‘om, Paxtachi, Narpay tumanlari hududlarida;
- suv resurslari tanqis joylarda. Bu ham cho‘l va chalacho‘l zonalarida, jumladan Nurobod, Qo‘shrabot, Paxtachi, Narpay tumanlari hududlarida;
- muallaq zarralarga ega bo‘lmagan suv manbalari mavjud bo‘lganda yoki suv dastlab tindirilganda;
- bog‘lar, uzumzorlar va issiqxonalar va kichik maydonlarni sug‘orish uchun. Shahar atrofi hududlarida.

Hozirgi vaqtda tomchilatib sug‘orishning turli tizimlari ishlatilmoqda. Ularning ko‘pi juda qimmatbaho, tuzilishi juda murakkab, ulardan foydalanish uchun yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan mutaxassislar va maxsus sharoitlar talab etiladi. Ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonda tomchilatib sug‘orish tizimlarini va butlovchi qismlarini ishlab chiqarishga mo‘ljallangan quvvatlar endigina yaratilmoqda. Hozircha esa tomchilatib sug‘orishning asosiy qismlarini (tomchilatgichlarni) chet eldan olib kelishga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa tomchilatib sug‘orish tizimini Respublikada ommaviy joriy qilishni biroz murakkablashtirmoqda.

Tomchilatib sug‘orish yangi tizimining asosiy qismini ichi ko‘rinmaydigan egiluvchan polietilendan yasalgan sug‘orish shlanglari tashkil qiladi. Ular asosiy quvurga mustahkam ulangan bo‘lib, uning markaziy o‘qi bo‘ylab juda kichik (mikro) suv chiqarish teshikchalari – tomchilatgichlar mavjud. Bunday texnologiya kichik issiqxonalar uchun juda mos keladi, chunki bunday tizimni yasash uchun qimmatbaho butlovchi qismlar talab etilmaydi. Tizimning asosiy qismini qo‘l ostida doimo mavjud oddiy materiallardan yasash mumkin. Bundan tashqari tizimdan foydalanish juda oson va bu muhim ahamiyatga ega. Uning yordamida ekinlarni belgilangan miqdorda oziqlantirish va buni sug‘orish bilan amalga oshirish mumkin.

Pushta olish va erlarni chuqur yumshatgichlar yordamida yumshatish, agrotexnologik tadbirlarni qo‘llash natijasida bahorda erlarni ekishga tayyorlashga zarurat qolmaydi, tuproqning o‘z nami bilan chigitni undirib olish, ekishni boshqa maydonlarga nisbatan 8-10 kun oldin o‘tkazish va suvni tejash imkoniyatini yaratib, ertagi va sifatli hosil etishtirishni ta’minlaydi. Tahlillarga qaraganda, bunday maydonlarda vegetatsiya suvi bir marta kam beriladi va har bir gektar maydon hisobida 1,2-1,4 ming m3 suv tejab qolinadi [1].

Tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orilgan maydonlarda suv erga ortiqcha singib ketmaydi, chunki tuproqning namlanish qatlami 40 santimetrdan oshmaydi, o‘simliklar ildizining asosiy qismi asosan shu qatlamda joylashadi. Natijada suvni er ostiga singib ketishining kamayishi hamda katta maydonlarga suvni kollektorlar va drenajlarga chiqib ketishining oldi olinishi tufayli, kollektor-drenajlar ekspluatatsiyasiga sarflanadigan mablag‘ni tejash imkonini beradi.

Viloyatning Kattaqo‘rg‘on va Oqdaryo suv omborlaridan yuqori qismida yilning bahor va kuz oylarida suv tanqisligi kuzatiladi. Viloyatda ushbu suv tanqisligi xolatlarini ta’sirini yumshatish maqsadida ariq zovurlarni tozalash tadbirlari bilan bir qatorda suv resurslarini tejovchi zamonaviy texnologiyalar xam joriy qilinmoqda.

Xulosa

Viloyat hududlarida (Jomboy, Oqdaryo, Ishtixon) suv resurslaridan oqilona foydalanish, bu borada zamonaviy yutuqlarni joriy qilish, suv tejovchi texnologiyalarni qishloq xo‘jaligiga jalb etish bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda (3-rasm). Bular asosan egat bo‘ylab va tomchilatib sug‘orish ishlari bo‘lib, boshqa usullarni (yomg‘irlatib, tuproq ostidan sug‘orishni) qo‘llashga hozircha imkoniyat va sharoit yetarli emas. Qolaversa mazkur sug‘orish ishlari ham o‘zining optimal darajasiga yetgani yo‘q. Ayniqsa, tomchilatib sug‘orish tizimi juda ko‘p islohotlarni talab qiladi. Ushbu islohotlarga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, malakali kadrlarni ko‘paytirish, sug‘orish ishlarini rivojlantirish uchun xarajatlarni oshirish va boshqalar kiradi. Biroq eng asosiysi ushbu jarayonni doimiy nazorat qilish, sug‘orish arellarini esa bosqichma-bosqich kengaytirib borish lozim.

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog‘ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar**: UDK, ishning nomi (o‘zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro‘yxati (to‘liq familiyasi, ismi, otasining ismi – o‘zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma’lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o‘zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so‘zlar (5-7, o‘zbek, rus va ingliz tillarida) bo‘lishi lozim.

MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo‘ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag‘ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo‘yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo‘lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo‘lib, mumkin qadar qisqa so‘zlar bilan ifodalangan bo‘lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; “Ilmiy axborotnoma” jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro‘yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko‘rinishida terilgan bo‘lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo‘lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o‘ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o‘lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo‘g‘in ko‘chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro‘yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro‘yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- “Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi”dan ko‘chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas’ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo‘llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E- mail: axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК **SCIENTIFIC REPORTS**

Mas’ul kotib	**X. Sh. Tashpulatov**
Musahhih	**O. Ro‘ziboyev**
Texnik muharrir	**A. I. Inatov**

Muharrirlar:

I.Sulaymonov	- f.f.d., dotsent
E.Arziqulov	- f.-m.f.n., dotsent
O.Yusupova	- fil.f.n., dotsent
A.R.Safarov	- PhD., dotsent

Mas’ul muharrirlar:

D. M. Aronbayev	- k.f.n., dotsent
A. Sh. Yarmuxamedov	- f.-m.f.n.

Muassis: Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87
e-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga 30.06.2020 yilda ruxsat etildi. Qog‘oz o’lchami A-4. Nashriyot hisob tabog‘i 10,00.
Buyurtma raqami 276.

_____

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
SamDU bosmaxonasida chop etildi.